

Atayeva Madinabonu

2006-yil Urganch tumani Zargarlar mahallasida tugʻilgan. Shu yerdagi 20-son maktabni tamomlagan. 2024-yil ona tili va adabiyotidan milliy sertifikatga ega boʻlgan. Hozirda Urganch davlat universiteti filologiya va tillarni oʻqitish oʻzbek tili yoʻnalishining 1-kurs talabasi.

MUVAFFAQIYAT

Bir inson muvaffaqiyatli odam boʻlish uchun juda qattiq harakat qilibdi. Ammo 5-6 yildan beri oʻz ishini rivojlantira olmadi. U tenggilar oʻz ishlarini undan keyin boshlab ham allaqachon rivojlanib ketishdi. U juda hayron qoldi va oʻzini ilm olishga bagʻishladi. Uning eng toʻgʻri qarori ham shu boʻldi. Muvaffaqiyat haqida oʻqigan kitoblaridan shuni bildiki: muvaffaqiyatga erishish uchun 3 xil toʻlovdan birini toʻlash kerak. Birinchisi-kōplab yillaring bilan, ikkinchisi - pul bilan, uchinchisi-hayot sinovlari, tashvishlari, qiyinchiliklar bilan. U bulardan birinchisini allaqachon toʻlab boʻlgan, shunday boʻlsa ham rivojlanmagan. U yana kōproq ilm olib shuni bildiki, har bir ishni boshlanishida ota-onaning duosi katta ekanligini. U ota - onasi bilan anchadan beri xafalashib ularning yoniga bormay qōygandi, shuning uchun ham ishlari rivojlanmagan. U buni bilgandan sōng qattiq pushaymon boʻlib ota - onasi yoniga borib ulardan kechirim sōraydi. Shundan keyingina uning ishlari rivojlana boshlaydi.